Materiallar to’plami · Conference Proceedings

TIL, TARJIMA VA TA’LIM: GLOBAL KOMMUNIKATSIYA VA RAQAMLI INNOVATSIYALAR DAVRIDA YANGI YONDASHUVLAR

03 October 2026

UDK 81

ZAMONAVIY LINGVISTIKA VA GLOBAL KOMMUNIKATSIYA

MUHOJIR AYOLLARGA DOIR JURNALISTIK MATERIALLARNING TILI VA USLUBI

Ozoda Choriyeva*

“Migrant-Info” axborot portali muxbiri

✉ ozodachorieva62@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur tezisda muhojir ayollar mavzusining “Migrant.uz” platformasida yoritilishida jurnalistik til va uslubning o‘rni tahlil qilinadi. Materiallarda qo‘llanilgan emotsional leksika, birinchi shaxs hikoyasi, metafora va til interferensiyasining muhojir ayollar obrazini shakllantirishdagi ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijasida jurnalistik til auditoriyaning mavzuni qabul qilishiga ta’sir qilishi hamda muhojir ayollarni nafaqat jabrlanuvchi, balki faol ijtimoiy subyekt sifatida ko‘rsatish zarurligi aniqlandi.

Kalit so‘zlar

muhojir ayollar, jurnalistik til, media diskurs, lingvopragmatika, metafora, til interferensiyasi.

DOI: 10.5281/zenodo.23278214

Migratsiya mavzusini, xususan, muhojir ayollar hayotini ommaviy axborot vositalarida yoritishda jurnalistik til va uslub muhim kommunikativ vosita hisoblanadi. Jurnalist tomonidan tanlangan leksik birliklar, sintaktik konstruksiyalar, metaforalar va materialning umumiy ohangi auditoriyaning muhojir ayollarga munosabatini shakllantirishga ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli mazkur mavzuni faqat ijtimoiy muammo sifatida emas, balki media diskursining lingvopragmatik hodisasi sifatida ham tadqiq etish dolzarbdir. Zamonaviy jurnalistikada migratsiya bilan bog‘liq materiallarda inson qadr-qimmatini saqlash, stigmatizatsiyadan qochish, gender sezgirlikni ta’minlash va muhojirlarni faqat jabrlanuvchi emas, balki faol ijtimoiy subyekt sifatida ko‘rsatish muhim mezonlardan hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, o‘zbek media makonida muhojir ayollar obrazining qanday lingvistik vositalar yordamida konstruksiya qilinayotganini aniqlash alohida ilmiy ahamiyatga ega.

Tadqiqot predmeti sifatida Migrant.uz platformasida e’lon qilingan muhojir ayollar haqidagi videomateriallar va jurnalistik ko‘rsatuvlar olindi. Tahlil jarayonida storytelling, tahliliy-huquqiy, surishtiruv va ijtimoiy-kriminal jurnalistika janrlariga mansub materiallarning tili, uslubi va kommunikativ xususiyatlariga e’tibor qaratildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi mazkur materiallarda qo‘llanilgan til va uslubiy vositalarni aniqlash hamda ular orqali migrant ayollar obrazining qanday konstruksiya qilinishini ko‘rsatishdan iborat. Tahlil uchun “Turkiya, muhojir ayol: Sirrozligim uchun ajraldim va baxtimni topdim”, “Rossiya, muhojir ayol: Musofir dardini hech kim o‘qiy olmaydi”, “Kesilmay qolgan tort — Musofir enaga hikoyasi”, “Ijara firibgarligi: 5 qiz bir kechada ko‘chada qoldi”, “Qamalyotgan kuryerlar. «Tez pul topish» sxemasi va noqonuniy biznes”, “Uyga bilet olganimda yig‘laganman | Migrant hikoyasi” hamda “Istanbul: poyabzalchi Marhabo otasiga qanday qilib «Cobalt» olib berdi?” kabi materiallar tanlandi.

Tahlil natijalari Migrant.uz materiallarida muhojir ayollar hayotini yoritishda turli jurnalistik uslub va janrlar qo‘llanilishini ko‘rsatdi. Storytelling janridagi materiallarda qahramonning shaxsiy hikoyasi va birinchi shaxs nutqi asosiy o‘rin egallaydi. Masalan, “Turkiya, muhojir ayol: Sirrozligim uchun ajraldim va baxtimni

topdim” materialida voqea qahramonning monologi orqali ochiladi[1]. Unda jonli so‘zlashuv va iqrorlik uslubi ustun bo‘lib, “qalbda og‘ir bir his” kabi emotsional iboralar qahramonning hayotiy tajribasini ta’sirchan yetkazishga xizmat qiladi. Qahramon nutqida o‘zbek, turk va xalqaro leksikaning qorishib kelishi esa migratsiya muhitida shakllangan o‘ziga xos nutqiy xususiyatni namoyon qiladi.

“Rossiya, muhojir ayol: Musofir dardini hech kim o‘qiy olmaydi” materialida esa muhojirlikning uzoq davom etishi, oiladan ayriliq va moddiy qiyinchiliklar qahramonning o‘z nutqi orqali ifodalangan[2]. “Och qoldim, yangi kiyimim yo‘q”, “yiqilib-yiqilib” kabi iboralar qahramon boshidan kechirgan qiyinchiliklarni bevosita va ta’sirchan ifodalashga xizmat qiladi. Shu jihatdan qahramonning tabiiy va xalqchil tili jurnalistik materialning emotsional kuchini oshiradi.

“Kesilmay qolgan tort — Musofir enaga hikoyasi” materialida esa badiiy-psixologik metafora muhim uslubiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi[3]. “Kesilmay qolgan tort” detali muhojir ayollarning vatandan uzoqda o‘tkazib yuborgan bayramlari, oilaviy quvonchdan mahrumligi va ushalmagan orzularining ramziy ifodasiga aylangan. Vaqtning ketma-ket ko‘rsatilishi esa qahramonning kutishi va umidsizligini kuchaytiradi.

Tahliliy va huquqiy yo‘nalishdagi materiallarda esa emotsional tasvir bilan bir qatorda fakt, raqam va mutaxassis fikrlariga katta e’tibor beriladi. “Ijara firibgarligi: 5 qiz bir kechada ko‘chada qoldi” materialida migrantlarning ijara masalasida duch kelayotgan muammolari real voqealar, statistik ma’lumotlar va huquqiy tavsiyalar orqali yoritilgan[4]. “Zalog”, “komissiya”, “subarenda”, “sutochniy kvartira”, “jil zakon” kabi terminlarning qo‘llanishi migrantlarning kundalik hayotida shakllangan aralash nutqiy muhitni aks ettiradi. Material yakunida “tekshiring”, “tasdiqlang” kabi imperativ fe’llar orqali auditoriyaga amaliy tavsiyalar berilishi uning ogohlantiruvchi funksiyasini kuchaytiradi.

“Qamalyotgan kuryerlar. «Tez pul topish» sxemasi va noqonuniy biznes” materialida esa shaxsiy voqea tizimli muammo bilan bog‘langan[5]. Unda jabrlanuvchi hikoyasi bilan bir qatorda psixolog, huquqshunos va boshqa respondentlarning fikrlaridan foydalanilgan. Shu tariqa materialda emotsional-ekspressiv til, kriminal terminlar va ilmiy tushunchalar parallel qo‘llanadi. Bu uslub muammoni faqat shaxsiy fojia sifatida emas, balki huquqiy va ijtimoiy jihatdan ham ko‘rib chiqish imkonini beradi.

Tadqiqotda ijobiy obraz yaratishga qaratilgan materiallar ham kuzatildi. Jumladan, “Istanbul: poyabzalchi Marhabo otasiga qanday qilib «Cobalt» olib berdi?” videomaterialida migrant ayolning xorijda halol mehnat qilishi, kasbiga sadoqati va oilasiga moddiy yordam berishi asosiy mavzu sifatida tanlangan[6]. Qahramonning jonli so‘zlashuv tili, kasbiy leksika va samimiy iboralari uning faol va maqsadga intiluvchi obrazini shakllantirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, tahlil qilingan materiallarda “iztirob”, “musofir dardi”, “xo‘rlik”, “alam”, “qullik”, “fojia”, “matonat” kabi emotsional-hissiy leksik birliklar faol qo‘llanadi. Birinchi shaxs hikoyasining ustunligi migrant ayollarga o‘z tajribasini ifodalash imkonini beradi. Biroq bunday yondashuv ayrim hollarda ayollar obrazining asosan jabrlanuvchi sifatida shakllanishiga olib kelishi mumkin. “Muhojir ayol”, “musofir ayol” kabi takrorlanuvchi birliklar mavzuni markazlashtirsa, “eshitilmagan ovoz”, “dard meni kuchli qildi” kabi metaforalar materialning emotsional ta’sirini kuchaytiradi.

Materiallarning vizual va audio tarkibi ham muhim ahamiyatga ega. Qahramonning yuzi, dramatik fon musiqasi va subtitrlar tomoshabinning hissiy qabulini kuchaytiradi. Shu bilan birga, bunday vositalarning ortiqcha qo‘llanishi muhojir ayolning real hayotiy tajribasidan ko‘ra uning “azob chekuvchi” obrazini oldinga

[1]Migrant UZ. Turkiya, muhojir ayol: Sirrozligim uchun ajraldim va baxtimni topdim / Video // YouTube. URL: https://www.youtube.com/watch?v=d_WBoXHa_ro

[2]Migrant.uz. Rossiya, muhojir ayol: Musofir dardini hech kim o‘qiy olmaydi / Video// YouTube. – 2024. URL: https://www.youtube.com/watch?v=-ILXZU_7agE

[3]Migrant UZ. “”Kesilmay qolgan tort”” — Musofir enaga hikoyasi / Video// YouTube. – 2022. URL: https://www.youtube.com/watch?v=7obpQkQ_SXA

[4]Migrant.uz. Ijara firibgarligi: 5 qiz bir kechada ko‘'chada qoldi / Video// YouTube. – 2026. URL: https://www.youtube.com/watch?v=f6cOGRDcgYQ

[5]Migrant.uz. Qamalyotgan kuryerlar. “Tez pul topish” sxemasi va noqonuniy biznes / Video] // YouTube. – 2026. URL: https://www.youtube.com/watch?v=4n-LMa9MtMM

[6]Migrant UZ. Istanbul: Poyabzalchi Marhabo otasiga qanday qilib “Cobalt” olib berdi? / Video // YouTube. – 2026. URL: https://www.youtube.com/watch?v=VQ-VzRBp74I

chiqarishi mumkin. Tahlil qilingan kontentlarda muhojir ayollarning chidamliligi, mehnatsevarligi va hayot qiyinchiliklarini yengib o‘tishga intilishi ham yoritilgan. Demak, Migrant.uz materiallarida muhojir ayol obrazi bir xil emas: ayrim materiallarda u ijtimoiy muammolar qurboni sifatida, ayrimlarida esa faol, mehnatkash va o‘z hayoti uchun qaror qabul qiluvchi shaxs sifatida namoyon bo‘ladi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, portal materiallarida muhojir ayollar mavzusini yoritishda storytelling, tahliliy-huquqiy va surishtiruv jurnalistikasi kabi turli janr imkoniyatlaridan foydalaniladi. Materiallarning til va uslubida emotsional leksika, birinchi shaxs hikoyasi, jonli so‘zlashuv, metafora, takror va til interferensiyasi kabi vositalar muhim o‘rin tutadi. Bunday uslub migrant ayollarning shaxsiy tajribasini auditoriyaga yaqinlashtiradi va ularning muammolarini jamoatchilik muhokamasiga olib chiqadi. Shu bilan birga, haddan tashqari dramatizatsiya ayrim holatlarda ayollarni faqat “qurbon” sifatida tasvirlash xavfini yuzaga keltirishi mumkin. Shuning uchun migrant ayollar haqidagi jurnalistik materiallarda muammolarni yoritish bilan bir qatorda, ularning faoliyati, mehnati, huquqiy imkoniyatlari va mustaqil ijtimoiy subyekt sifatidagi tajribasini ham ko‘rsatish muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Migrant UZ. Turkiya, muhojir ayol: Sirrozligim uchun ajraldim va baxtimni topdim / Video // YouTube. URL: https://www.youtube.com/watch?v=d_WBoXHa_ro
2. Migrant.uz. Rossiya, muhojir ayol: Musofir dardini hech kim o‘qiy olmaydi / Video// YouTube. – 2024. URL: https://www.youtube.com/watch?v=-ILXZU_7agE
3. Migrant UZ. ‘ ‘Kesilmay qolgan tort’ ’ — Musofir enaga hikoyasi / Video// YouTube. – 2022. URL: https://www.youtube.com/watch?v=7obpQkQ_SXA
4. Migrant.uz. Ijara firibgarligi: 5 qiz bir kechada ko‘'chada qoldi / Video// YouTube. – 2026. URL: https://www.youtube.com/watch?v=f6cOGRDcgYQ
5. Migrant.uz. Qamalyotgan kuryerlar. “Tez pul topish” sxemasi va noqonuniy biznes / Video] // YouTube. – 2026. URL: https://www.youtube.com/watch?v=4n-LMa9MtMM
6. Migrant UZ. Istanbul: Poyabzalchi Marhabo otasiga qanday qilib “Cobalt” olib berdi? / Video // YouTube. – 2026. URL: https://www.youtube.com/watch?v=VQ-VzRBp74I

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Migrant UZ. Turkiya, muhojir ayol: Sirrozligim uchun ajraldim va baxtimni topdim / Video // YouTube. URL: https://www.youtube.com/watch?v=d_WBoXHa_ro

[2] Migrant.uz. Rossiya, muhojir ayol: Musofir dardini hech kim o‘qiy olmaydi / Video// YouTube. – 2024. URL: https://www.youtube.com/watch?v=-ILXZU_7agE

[3] Migrant UZ. ‘‘Kesilmay qolgan tort’’ — Musofir enaga hikoyasi / Video// YouTube. – 2022. URL: https://www.youtube.com/watch?v=7obpQkQ_SXA

[4] Migrant.uz. Ijara firibgarligi: 5 qiz bir kechada ko‘’chada qoldi / Video// YouTube. – 2026. URL: https://www.youtube.com/watch?v=f6cOGRDcgYQ

[5] Migrant.uz. Qamalyotgan kuryerlar. “Tez pul topish” sxemasi va noqonuniy biznes / Video] // YouTube. – 2026. URL: https://www.youtube.com/watch?v=4n-LMa9MtMM

[6] Migrant UZ. Istanbul: Poyabzalchi Marhabo otasiga qanday qilib “Cobalt” olib berdi? / Video // YouTube. – 2026. URL: https://www.youtube.com/watch?v=VQ-VzRBp74I